

SIYOSIY NUTQ – IJTIMOIIY-SIYOSIY NOTIQLIKNING MUSTAQIL TURI SIFATIDA

Elbek Ro‘ziyev

Termiz davlat universiteti

o‘zbek tilshunosligi kafedrası stajyor-tadqiqotchisi

e-mail: elbek_ruziyev@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada siyosiy nutqning o‘rganilishi, bu boradagi jahon va o‘zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Siyosiy nutqning boshqa nutq turlaridan farqi xususiyatlari ko‘rsatilgan holda uning rivojlanish jarayonlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *siyosiy lingvistika, siyosiy nutq, voizlik, notiqlik turlari, sud notiqligi.*

ABSTRACT

In this article, the study of political speech, the theoretical views of world and Uzbek linguistics in this regard are analyzed. The processes of its development are highlighted, showing the features of political speech that differ from other types of speech.

Keywords: *political linguistics, political discourse, preaching, types of oratory, judicial oratory.*

KIRISH

Nutq madaniyati, notiqlik san‘atiga odamlar azaldan qiziqqanlar. Nutq madaniyatining yuqori turi hisoblanuvchi notiqlik san‘ati qadimgi davrlardan ma‘lum bo‘lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Notiqlik amaliy va ilmiy tadqiqot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan. Uning ilk ko‘rinishlari Misr, Ossuriya, Vavilon,

Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lgani ma'lum. Shuningdek, sharq va g'arb notiqlik tarixi va uning turlarini tadqiq etish, dastlab nazariy qarashlarning o'rganilishi bilan boshlanadi.

Siyosiy lingvistika bugungi kunda tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida keng o'rganilmoqda. Siyosiy lingvistikada asosiy e'tibor qaratiladigan masalalardan biri bu siyosiy diskurs hisoblanadi. Diskurs uning turlari borasida jahon tilshunosligida bir qancha ta'riflar keltirib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Siyosiy lingvistika xususan siyosiy nutqning strukturaviy funksional tahlili borasidagi qarashlar dastlab, Platon, Aristotel, J.Bul, J.Miller asarlarida bayon qilib o'tilgan. Siyosiy lingvistikaning lisoniy asoslari, strukturaviy unsurlar, boshqa lingvistik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi masalalari M.Baxtin, R.Bart, X.Gadamer, D.Devidson, J.Delez, Y.Lotman, A.P. Chudinov kabi olimlarning tadqiqotlarida tizimli ravishda o'rganildi.

Siyosiy lingvistika borasida ishlarning o'zbek tilshunosligidagi o'rganishlari borasida to'xtalar ekanmiz, bevosita bu ishlar nutq madaniyati, notiqlik borasidagi tadqiqotlar doirasida bajarilganini ta'kidlash o'rinlidir. A.H.Aripovning "Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari" nomli tadqiqot ishida notiqlik madaniyati tarixi, uning uslubiyatiga doir masalalar tadqiqi barobarida ijtimoiy –siyosiy notiqlik uning mazmuniy ifodalanish borasida fikrlar bildirib o'tilgan [1:16].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Voizlik san'ati tinglovchilarning, voizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqe va lavozimlarini hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ham uchga ajratilgan: sultoniyat – yuqori tabaqa a'yonlari uchun; jihodiya-jangoh ishtirokchilari uchun; g'aribona – oddiy fuqarolarga mo'ljallangan nutqlar. Har birining yozilishi, o'qilishi, shuningdek, va'z etilish shartlari, usuli har xil bo'lgan.

Jonli so'zning beqiyos qudratidan bahramand bo'lish o'zbek xalqining xislatlaridan biridir. Notiqlik – chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlash ilmi, badiiy yetuk so'zlangan

nutq san'atidir. Notqlik nutqi daliliy materiallarga boy bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'z fikrini isbotlash, ya'ni keltirilgan dalillarning to'g'riligini ko'rsatib berish;
2. Tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlash;
3. Tinglovchilarning ongiga, qalbiga, kayfiyatiga ta'sir etish, kishilarni faollikka undash [2:2].

Qayd etilganidek, jonli so'z, notqlik san'atiga qadim zamonlardan buyon alohida e'tibor berib kelinadi. Hozirgi vaqtda esa bu soha kishilariga talab kattadir. Notiq oldida o'z nutqining sifatini yaxshilash va takomillashtirish vazifasi turadi. Nutqning muvafaqqiyatli chiqishida, nutqning shakliy tomoni ham katta ahamiyatga ega.

Nutqning ta'sirchan bo'lishi uchun aniq va ravshan talaffuz, to'g'ri, o'z o'rnida qo'yilgan to'xtamlar bo'lishi shart. Shuningdek, nutq sur'ati, ovoz kuchi, nafas, tinglovchilar bilan izchil aloqa bog'lay olish, qo'l harakati va shu kabi nolisoniy va boshqa lisoniy vositalarga ham alohida ahamiyat berish talab qilinadi.

Sitseron fikricha, notiqqa qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Notiq nutq jarayonida dadil bo'lishi, nutq mavzusini chuqur bilishi kerak;
2. Nutq to'la isbotlanishi kerak;
3. Nutq oldi-qochdi so'zlardan, ahamiyatsiz fikrlardan holi bo'lishi lozim;
4. Nutq materiallarini sidqidillik bilan to'plash, bu materiallar o'z mavzusi bilan tinglovchilarda qiziqish uyg'otishi kerak;
5. Manbalarni reja asosida joylashtirish, tushunishga oson bo'lishini ta'minlash lozim.

Qadimgi Yunoniston va Rimda asosan uch xil notqlik ko'rinishi faoliyat ko'rsatgan:

- a) sud notiqligi;
- b) siyosiy notqlik;
- v) maqtov notiqligi.

Notiqlikning ana shu bo‘linishlari orasida siyosiy nutq ham davrlar davomida takomillashib bordi. Bu jihat bugungi kunda lingvistikada siyosiy diskurs doirasida o‘rganilmoqda.

Siyosiy diskursda vositalar va usullar bilan ifodalangan xalqchilik ruhi kuchli bo‘ladi. Bu siyosiy diskursning oldiga qo‘ygan maqsadlariga mutanosib ravishda vazifalariga bog‘liq bo‘ladi. Negaki, xalq ruhiyatiga hamda tiliga mos so‘zlar va iboralar auditoriyani o‘ziga jalb qila oladi. Bu kabi turlarni yana kengaytirish mumkin lekin ularning barchasida siyosiy fanlarni o‘rganishning turli usullari va uslublari, til darajalari va matn xususiyatlari izchil o‘rganiladi. Lingvopolitologiya yoki siyosiy lingvistika ikki mustaqil fan: siyosat va lingvistikaning tutashish chorrahasida vujudga kelgan bo‘lib lingvistikaning mustaqil tarmog‘idir [3]. Siyosiy lingvistika sohasini o‘rgangan rus olimi A.Chudinov, siyosiy tilshunoslik boshqa tilshunoslik yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq holatda bo‘lishini ta’kidlar ekan, uning til va jamiyatning o‘zaro ta’siri muammolari tomonidan – sotsilingvistika, funktsional stilistika va ayniqsa, publitsistik uslubni o‘rganishi bilan, klassik va zamonaviy ritorika, kognitiv lingvistika va matn lingvistikasi bilan bog‘liqlik tomonini bildirib o‘tadi [4; -b.7]. Til, davlat, jamiyat munosabatlarining tobora kengayib borishi asnosida siyosiy lingvistika sohasiga qiziqish ham tobora kegayib bormoqda. Xususan, siyosiy lingvistika sohasi bilan shug‘ullanadigan olimlarning zamonaviy siyosiy lingvistikaning to‘rtta avtanom, ichki yo‘nalishlarini ajratib o‘tadi [5; -b. 22]. Bular:

- 1) siyosiy diskursni tanqidiy tahlil qilish;
- 2) siyosiy diskursning tarkibini tahlil qilish;
- 3) siyosiy diskursning ritorik tahlili;
- 4) siyosiy diskursning kognitiv tadqiqi.

Ushbu yo‘nalishlarni bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi, ular bir-birini to‘ldiruvchi vositadir. Kognitiv yondashuv tanqidiy nutqni tahlil qilish bilan birlashtirilishi mumkin, bu esa o‘z navbatida yana psixolingvistik usullar bilan to‘ldirilishi mumkin.

XULOSA

Siyosiy nutqni tanqidiy tahlil qilish ijtimoiy kuchning jamiyatdagi hukmronligini amalga oshirish usullarini o'rganishga qaratilgan. Notiqlik nutqini faqat bitta mavzu bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki biz hayotimizning barcha sohalarida ritorikadan foydalanamiz. Bundan tashqari, har qanday mavzu, har qanday fikr, borliq, fakt, fikr, hamma narsa haqida gapirish mumkin bo'lganligi sababli nutqning predmeti bo'lishi mumkin [6;-b.8]. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik o'zining davlat va jamiyat boshqaruvida muhim ekanligi bilan ajralib turadi.

Muxtasar tarzda fikrimizni xulosalaydigan bo'lsak siyosiy diskurs murakkab o'rganish obyektidir, chunki u turli fanlar - siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya, tilshunoslik chorrahasida joylashgan va muayyan siyosiy vaziyatlarda qo'llaniladigan nutqning shakli, vazifalari va mazmunini tahlil qilish bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripova A. H. Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari. Fil. fan.. nomz. diss. – T. 2002.
2. Жалилов Ҳ. Нотиқлик санъати. –Т.: Ўзбекистон, 1976.
3. Ro'ziyev E.O'. Tilshunoslikda siyosiy diskurs tushunchasi. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME1 | ISSUE 2 –B. 229 <https://cyberleninka.ru/article/n/-tilshunoslikda-siyosiy-diskurs-tushunchasi>
4. Чудинов А.П. Политическая лингвистика: Учеб. пособие / Москва. Изд-ва “Флинта”, 2006.
5. Будаев Э.В., Ворошилова М.Б., Дзюба Е.В., Красильникова Н.А.; отв. ред. А.П.Чудинов; Современная политическая лингвистика: учебное пособие /Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2011.
6. Рузиев, Э. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIY HUKMDORLAR YORLIQLARIDA SIYOSIY NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 161-167.
7. Elbek, O'Rol O'G. "TILSHUNOSLIKDA SIYOSIY DISKURS TUSHUNCHASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.2 (2021): 229-232.